

Termiz shahri va Termiz tumanida sanoat korxonalarining muammolari o'rganildi



Davlatimiz rahbari huzurida joriy yil 8 sentyabrь kuni o'tkazilgan sanoat korxonalari barqaror ishlashi uchun tarmoq va hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahri va Termiz tumanida bo'lib, sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi, ularning mavjud muammolarini o'rgandi.

Xususan, Termiz shahridagi "Oravit Keramik" MChJning keramika, "Imperiya demis" xususiy korxonasining gazabeton, "Saodoatbonu Aziza Termiz" xususiy korxonasining qurilish ishlarini moliyalashtirish hamda Termiz tumanidagi "Surxon Termiz sharq" xususiy korxonasining gazablok, "Surxon keramiks" MChJning keramika, "Movaraunnaxr Surxon" MChJning temir beton mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari bilan tanishilib, mavjud muammolar mutasaddilar ishtirokida o'rganildi.

Mas'ullarga tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlab, yuzaga kelgan kreditor qarzdorliklarini o'rganish, muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish, loyihalarning to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash choralarini ko'rish, shuningdek, energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash vazifalari topshirildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)